

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

SAMATOVA DILRABO

MILET MAKTABI GURUHI A'ZOLARI

- QOSIMOV ELBEK
 - YUNUSOV JAVOHIR
 - JUMABOYEVA MUNIRA
 - MAMUROVA MALOXAT
 - ORTIQBOYEVA HURRIYAT
-
- USMONOVA ODINA
 - ISANOVA NARGIZA

OITS – ASR VABOSI

*Har bir inson bu haqida
bilishi lozim!*

GUL DU

OITS nima o'zi???



- OITSning ma'nosi – **Orttirilgan Immunitet Tanqisligi Sindromi**. Bu dahshatli va bedavo kasallik hozirgi zamonning “vabosi” deb yuritiladi.
- OITS virusi ilk bor Afrika qit'asida XX asrning boshlarida aniqlangan. OITSni fransuz olimi Lyuk Montante va amerikalik olim Robert Gallolar kashf etgan OITV virusi keltirib chiqarishi isbotlangan.
- OITV – bu OITS kasalligini qo'zg'atuvchi virus bo'lib, u jarayonning boshlang'ich bosqichidir. Bu virus odam immuniteti tizimini zaiflashtiradi va oxir oqibatda organizm oddiy yallig'lanish kasalliklarida ham himoyalana olmaydigan, chidamsiz bo'lib qoladi. Bu kasallikning davosi topilmagan, oxiri fojeali o'lim bilan yakunlanadi.





- OITV kasalligining so'nggi davri virus tushgan vaqtdan boshlab, organizm o'z-o'zini himoya qila olmasligigacha 1-5 yil o'tishi mumkin. Mana shundan keyingina odam hayotini xavf ostida qoldiradigan OITS bosqichi boshlanayotgan bo'ladi. Boshlanayotganda odam buni sezmaydi, o'zini yaxshi his qiladi va hattoki OITS virusini yuqtirganidan shubha ham qilmaydi. OITV infeksiyasi OITS bosqichiga o'tishi uchun 10 yil ham ketishi mumkin.



Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) — ret-rovirus guruhiga mansub virus qo'zg'atadigan kasallik; ikki davrga bo'li-nadi: OITV infeksiyasi va bevosita OITS (SPID) davri. OITV infeksiyasi davri odam organizmida virus bor, lekin kasallik alomatlari hali na-moyon bo'lmagan davr. Virus deyarli bir vaqtda Parijda prof. Lyuk Montanye hamda AQShda prof. Gallo boshchili-gidagi olimlar tomonidan kashf etilgan (1983 y.). Bu virus odamning immunitet tizimiga tanlab ta'sir ko'rsata-di, ayniqsa, SD4+ immun hujayralariga qirg'in keltiradi. Virus odam organizmiga tushgach, 2—3 kundan so'ng , 25—30% hollarda birlamchi infeksiya davriga xos alomatlar kuzatilishi mumkin. Bu "o'tkir serokonversiya sin-dromi" deb ataladi, bunda harorat ko'tariladi, tunda terlash, bo'g'imlar va bosh og'rig'i, loxaslik, qayt qilish, ich ketishi, badanda, ayniqsa, uning yuqori qismida toshmalar paydo bo'lishi mumkin. Bu alomatlar odam organizmiga tushgan virus ta'siriga immunitet tizimi ma'lum darajada javob qaytarish reaksiyasi bilan bog'liq. Lekin bu davrda antitelolarni aniqlash natija bermaydi, chunki immunitet tizimining javobi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Kasallikning bu davri 8—10 y.gacha, ba'zan undan ham uzoq davom etishi mumkin. Hoz. kunda amaliyotda OITV infeksiyasi tashhisini qo'yish qonda kasallik virusiga qarshi paydo bo'lgan antitelolarni aniqlash — immun ferment taxlili (IFT) reaksiyasiga asoslangan. Dastlabki antitelolar virus organizmga tushgach, 3 haftadan so'ng shakllana boshlasa ham, qo'llanadigan diagnostikumlar ularni ilg'ay olmaydi. Shu bois, odamga ushbu infeksiya ilashgani to'g'risida virus organizmga tushganidan so'ng 90 kun o'tkazib olingan tek-shirish natijasiga qarab xulosa chiqarish mumkin.

OITS







BELGILARI

OIV yuqqandan so'ng, OITS kasalligining belgilari kishining yashash sharoiti va immunitetiga qarab, 3 - 5 yil, ba'zida undan ham ko'proq vaqt o'tgach namoyon bo'ladi. OIV yuqqan vujudda har xil hujayralarga, ko'proq CD4+T qon hujayralariga yerlashib ko'payadi. Zarar ko'rgan CD4+T hujayralari kamayib borib immunitet o'z kuchini yo'qota boshlaydi. OITSga chalingan kishining, odatda oddiygina bir nechakunda kelib kechadigan kasalliklarining muddati anchagina uzayadi, tuzalishi qiyinlashadi. Limfa bezlarida kattalashish, og'iz va terida takror-takror uchuq, yara toshishi, dog'lar paydo bo'lishi ko'riladi. Bemor, kechalari terlashga, isitmasi chiqishga, ozishga boshlaydi. Bir insonda ushbu belgilarda bir nechitasi paydo bo'lsa, o'sha insonning OITS bo'lgan bo'lish ehtimoli bo'ladi. Kaposi Sarkomasi va limfa kasalliklari bo'lsa OIV ning belgilar bo'lishi mumkin. Buni aniqlash uchun anti-OIV testi qilinadi.

OITS virusining rivojlanishi





Дизайн "Conductor" (журнал "НаркоНет", Россия (без наркотиков))

- OITS aniqlangan dastlabki davrlarda ushbu kasallik asosan aholining havfli guruhiga kiruvchi qatlam – giyohvandlar, axloqsiz shaxslar, tug'ma gemofiliya bilan kasallanganlarda keng tarqalgan.

- Biroq hozirgi vaqtda BSST ma'lumotiga ko'ra OITS virusi epidemiyasi aholining asosiy qatlamida ham kengaymossa.




- OITS virusi chidamsiz bo'lib, suvda 10 daqiqa qaynatish davomida halok bo'ladi. Maxsus dezinfeksiya vositalaridan ham foydalanish mumkin. Spirt OITVni o'ldirmaydi.



OITS virusining yuqish yo'llari:

- zararlangan qon sog'lom odamga quyilganda;
- kasallangan onadan bolaga homiladorlik, tug'ruq vaqtida va ko'krak sutidan boqilganda;
- zararlangan shprislardan foydalanilganda.




- Stomatologiya, sartaroshxona, go'zallik salonlari (manikyur, pedikyur va tatuaj xonalari)da OITS virusini yuqtirish xavfi katta.




HIMEDIA®

OITV

OITV hozirgi davrda judayam yahshi o'rganilgan hisoblanadi.



Hattoki hozirgi davrda agar OITV yuqqanligiga shubqa qilsak uni o'sishini to'htatib qo'yadigan dori vositalari ham bor.



OITVni asosiy uchta yuqish yo'li bor:



- JINSIY



- QON orqali



- Onadan bolaga


Basseyyn, Banya, Vannalar.....

Suvga tushgan Virus ber necha daqiqada o'lib ketadi, lekin zararlangan teri orqali uni yuqtirib olish mumkin.



Analiz topshirish.....

Bazida hech qachon shubhali kontaktda bo'lmaganlarda ham OITS analizi salbiy chiqishi mumkin, shuning uchun bu analizni qayta topshirish kerak bo'ladi.....



Stomatologiya, Manikyur, Sartaroshhona.....



OITS virusi quyidagi hollarda yuqmaydi:

- Qo'l bilan yoki quchoqlashib ko'rishganda;
- Aksirganda, yo'talganda;
- Basseynda cho'milganda;
- Umumiy idishdan, telefondan va umumiy hojatxonadan foydalanganda;
- Hasharotlar chaqqanda.





OITS bilan kasallangan bemorlar:

- AFRIKADA - 46,5 %,
- AMERIKADA - 33,0 %,
- YEVROPADA - 10,5 %,
- ROSSIYADA - 6,0 %
- OSIYODA - 3,5 %,
- OKEANIYADA - 0,5 % ro'yxatga



OITS bilan kasallanganlar orasida 15 yoshgacha bo'lgan bolalar sonining ko'pligi achinarli holdir.



Statistika...

Hozirgi vaqtda OITS virusi bilan kasallanganlar 30 mln.dan ortiq, kasallikdan vafot etganlar soni esa 6 mln.ni tashkil etadi.

Kuniga 8000 dan ortiq inson ushbu virusni yuqtirmoqda!!!

Profilaktika choralari

**Eng asosiy shart – SOG'LOM
TURMUSH TARZI VA
NAMUNALI XULQ-ATVOR!**

- axloq-odob qoidalariga rioya etish;
- zararli odatlarga berilmaslik;
- oilani, oilaviy munosabatlarni qadrlash;
- faqat sterillangan asboblardan, yangi 1 martalik shpris, sistemalardan foydalanish;
- qon quydirishda donor qonni OITSga tekshirtirish.





- OITS nafaqat shifokorlar va sog'liqni saqlash xodimlari muammosi, balki ko'pgina soha olimlari, davlat arboblari, iqtisodchilar, yuristlar va sotsiologlar muammosi hamdir.
- Har bir inson o'zi va atrofdagilar uchun ham OITS tarqalishining oldini olish maqsadida bu kasallik haqida bilishi hamda ehtiyotkorlik choralarini qollashi lozim.



- Hozirgi kunda respublikamizda OITS ga qarshi kurashish maqsadida 15 ta OITS markazlari, 100 dan ortiq diagnostika laboratoriyalari, 220 dan ortiq “Ishonch xona”lari faoliyat ko’rsatmoqda.




- Har bir inson yoshi, jinsi, yashash joyi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa xususiyat va omillaridan qat'iy nazar OITS virusini yuqtirishi mumkin. Bularning barchasi insonning o'ziga, xulqiga bog'liq!





DO'STLAR



MUHABBAT

**BULARNING BARINI
YO'QOTISH MUMKIN!**



BAXTLI BOLALIK



OILA

***E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT!***